



UDK:004:372(575.1)

Shaxnoza TAYLAKOVA,

O'z JOKU fakultet dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail:shakhnozataylakova86@gmail.com

p.f.d. K. Qilicheva taqrizi asosida

STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL COOPERATION OF SOCIAL INSTITUTIONS AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE FIGHT AGAINST DESTRUCTIVE IDEAS AMONG YOUNG PEOPLE

Annotation

This article analyzes destructive ideas spreading through the Internet and social networks, as well as issues of strengthening ideological cooperation between social institutions, such as parents, teachers and media representatives.

Keywords: Internet, social networks, breakthrough ideas, adolescence, information, spiritual and moral views, social institutions, media literacy, ideological cooperation.

УКРЕПЛЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР БОРЬБЫ С ДЕСТРУКТИВНЫМИ ИДЕЯМИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ.

Аннотация

В данной статье анализируются деструктивные идеи, распространяющиеся через Интернет и социальные сети, а также вопросы укрепления идеологического сотрудничества между социальными институтами, такими как родители, педагоги и представители СМИ.

Ключевые слова: Интернет, социальные сети, прорывные идеи, подростковый возраст, информация, духовно-нравственные взгляды, социальные институты, медиаграмотность, идеологическое сотрудничество.

YOSHLAR ORASIDA BUZG'UNCHI G'OYALARGA QARSHI KURASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA IJTIMOY INSTITUTLAR O'RTASIDAGI MAFKURAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH

Annotatsiya

Mazkur maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan buzg'unchi g'oyalar tahlili va yoshlar orasida ularga qarshi kurashishda ota-onalar, pedagoglar hamda media vakillari kabi ijtimoiy institutlar o'rtasidagi mafkuraviy hamkorlikni mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: internet, ijtimoiy tarmoqlar, buzg'unchi g'oyalar, o'smirlik davri, axborot, ma'naviy-ahloqiy qarashlar, ijtimoiy institutlar, mediasavodxonlik, mafkuraviy hamkorlik.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari avj olgan bir davrda axborot xavfsizligini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shuning uchun ham kiber xavfsizlik davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan O'zbekistonda terrorizm va ekstremizmga qarshi samarali va insonparvarlik qadriyatlariga sodiqlik, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik asosida siyosat yuritish Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonga Prezident etib saylanganidan keyin boshlandi. Chunki, bu davrga kelib, 2016-yilning oxirgi choragi va 2018-yillarda Prezident Sh.M.Mirziyoyev Markaziy Osiyodagi davlatlarning o'zaro munosabatlaridagi yangi bir davrga asos soldi. Ilgari O'zbekiston bilan talay masalalarda kelishmagan Qozog'iston, Qirg'iston, Tojikiston davlatlari o'rtasida iliqlik paydo bo'ldi. O'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Mazkur davlatlar rahbarlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar va ixtiloflarga barham berildi. Mintaqadagi suv resurslari, transport, chegaralar, bojxona, savdo aloqalari, vizalarni bekor qilish, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalar sohalaridagi o'zaro nizolar, shaxsiy adovatlariga doir barcha muammolar o'zaro muloqotlar vositasida bartaraf etildi. Muhimi, bu o'zgarishlar bitta davlat boshlig'ining o'zgarishi – Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi natijasi o'laroq ro'y berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi o'n yilliklarda Internet tarmog'idagi turli saytlar, messengerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali buzg'unchi ma'lumotlarni tarqatish holatlari uchrab turibdi. Xususan, Facebook, Odnoklassniki,

WhatsApp, Viber, Telegram, Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, videoxostinglar ekstremistik g'oyalarni targ'ib etish mumkin bo'lgan virtual muloqot maydoniga aylandi. Ularda milliy, diniy adovatni keltirib chiqarishga, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi, o'z joniga qasd qilishni rag'batlantiruvchi materiallar soni ortib bormoqda.

Ushbu manbalar "zararli" ma'lumotlarning tashuvchisidir, shuning uchun mutaxassislarning tushunishida "zararli ma'lumotlar" quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) ijtimoiy, irqiy, diniy yoki milliy adovat va adovatni qo'zg'atuvchi ma'lumotlar;
- 2) urushga chaqiriqlar;
- 3) nafrat, adovat va ustunlikni targ'ib qilish;
- 4) insonning sha'ni va obro'siga tajovuz qilish;
- 5) odamlar ruhiyatiga halokatli ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlar.

Elektron ommaviy axborot vositalari eng zamonaviy aloqa kanolidir. Elektron tarmoqlarda ma'lumotlarni filtrlash muammosi eng munozarali masalalardan biridir. Ta'kidlash joizki, Internetda yollashning ekstremistik uch turi qo'llaniladi:

- ekstremistik tashkilotlarning rasmiy saytlari;
- ekstremistik materiallar tarqatiladigan va muhokama qilinadigan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar;
- yashirin guruhlardagi zararli guruhlarining rejalari va kelgusidagi harakatlari muhokama qilinadigan saytlar, shuningek, onlayn jamoalar Diniy va siyosiy ekstremistik oqimlar va guruhlar vakillari Internet-resurslarda yuz minglab odamlar tinglashi mumkin bo'lgan munozaralarda qatnashish,

mafkurasi va e'tiqodlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bunday manbalar yoshlar ongiga salbiy ta'sir qiladi va davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydi. Ekstremistlar yangi tarafdorlarni yollash uchun Internetdan foydalanadilar va shu bilan o'z saflarini to'ldiradilar. Ekstremist va terrorchi tashkilotlar axborot ekstremizmini o'z tarafdorlari sonini ko'paytirishning asosiy usuli deb biladilar. Internet hamjamiyatlaridagi aloqalar sizga jug'rofiy jihatdan katta masofalar bilan tezkor aloqada bo'lish, kelgusi harakatlarni juda yashirin rejimda muhokama qilish, rejalashtirish va muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm g'oyalarini ochiq tarqatadigan saytlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bunday manbalar orqali xalqaro terrorchilik tashkilotlari targ'ibot ishlarini deyarli to'sqinlik qilmaydilar. Internetda ekstremizmga qarshi kurash uchun vositalar kerak. Qonun hujjatlarida jinoiy va ma'muriy kodekslarda tegishli normalar qo'llaniladi. Ammo ekstremizmga to'sqinlik qilish uchun jinoiy ko'rinish sifatida qonunchilik bazasi yaxshilanishi, maxsus xizmatlarning faoliyati kuchaytirilishi kerak, shuningdek, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish ham ahamiyatga molik.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda internetda 40 mingdan ko'proq ekstremistik saytlar mavjud. Jumladan, IShID o'z g'oyalarining keng tarqalishini ta'minlash maqsadida Facebookda «Caliphatebook» tarmog'ini ochgan. Hozirda uning sahifalarida radikal g'oyalar tarafdorlari jamoalarini shakllantirishga urinmoqda. Shuningdek, Twitter ijtimoiy tarmog'ida IShID g'oyalari va faoliyatini qo'llabquvvatlovchi 50 ming atrofida akkaunt mavjudligi va ularning har biri o'rtacha mingta «hamfikir» va «izdosh»ga ega ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, IShIDning «Al-Furqon» va «Al-Hayot» media markazlari asosan arab, ingliz, nemis, fransuz, rus, hind, urdu, bengal, turk, kurd va boshqa yana bir qator tillarda targ'ibot-tashviqot xurujlarini amalga oshirib kelmoqda.

Internet tarmog'i orqali tarqalayotgan materiallar turli shakllarda bo'lib, asosan matnli, audio va video ko'rinishlarga ega. Jumladan, Youtube videoxostingi orqali har daqiqada turli mavzuga oid 300 soatlik videoroliklar joylanadi.

Materiallarning 2,37 foizi behayollikni targ'ib qiluvchi videolardir.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 20 milliondan ortiq bo'lib, shundan yoshlarning 80 foizi mobil internetdan foydalanadi.

Internet tarmog'ida tarqatilayotgan materiallar orasida ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallar soni jihatdan ortib bormoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

- O'zbekiston Respublikasining yagona axborot maydonini kiber jinoyatchilikka qarshi kurashga qobil bo'lgan kiber xavfsizlik tizimini shakllantirish;

- aholi o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar, feysbuk va mobil aloqalarda ekstremizmga qarshi turli axborotlar va ma'lumotlar berib borish;

- O'zbekistonning ichki siyosatini buzib ko'rsatuvchi, noxolis axborotlar tarqatuvchi, ekstremizmga oid feyklarini fosh qiladigan maxsus markaz tashkil etish;

- internet saytlarida ekstremistik g'oyalarga qarshi haqiqiy falsafasi va islom g'oyalariga doir axborotlar va ma'lumotlarni berib borish, mazkur mavzularga oid dialoglar olib borish saytlarini ochishni tashkil etish.

Kompyuter texnologiyalarini qo'llash usullarining tobora kengayib borishi aniq ko'zga tashlanadi. Axborot texnologiyalarining taraqqiyoti – xalqaro amaliy va madaniy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liqdir. Insonlar hayotining hamma jabhalari – yirik davlatlarning siyosatidan

har bir odamning kundalik faoliyati o'zgarib, axborot muhiti va global tarmoqlarga bog'liq bo'ladi. Kompyuter hayot va amaliy faoliyatning universal vositasiga aylanadi. Tarmoqqa chiqishning birinchi sharti – mijozning o'z shaxsiy kompyuteri bo'lishi kerakligidir.

Tarmoq juda qisqa vaqt ichida deyarli hech qanday harajatsiz juda ko'p mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatishi mumkin. Bu aloqa universal va global xarakterga ega. Subyektlar va obyektlarning o'zaro aloqasini bir zumda, qanday masofa, manzil yoki inson faoliyati sohasi bo'lmasin, o'rnatish mumkin. Odamlar orasidagi bevosita muloqot virtual (vosita orqali) aloqaga aylanadi. Tarmoq vositachi sifatida virtual jamiyatlarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu holat odamlar o'rgasidagi vaqt va masofa bilan bog'liq chegaralarni buzib, ular o'rtasida turli usullar bilan muntazam axborot almashish asosida yangi hamjamiyatlar yuzaga kelishiga olib keladi. (internet klub, odnoklassniki, v kontakte v.x.k.)

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda Internet – jamiyatning ma'naviy va moddiylashtirilgan axborot imkoniyatlarini muntazam aniqlashtirilgan modeli bo'lib qoldi. Bu bilan u insoniy faoliyatning turli yo'nalishlari va turlari uchun qudratli ma'lumotlar (axborotlar) asosiga aylandi.

O'smirlar va kichik yoshdagi bolalar toifasiga kiruvchi 11-17 yoshdagi Internetdan foydalanuvchilar kiradi. Ularni o'ziga jalb etuvchi holat – guruhlar o'rtasidagi muloqotdir. O'smirlar o'zlarini to'qib chiqarilgan obrazlarga soladilar, ismi, yoshi xatto jinsini ham yashiradilar. Bir-birini ko'rmas va eshitmas o'rnatilgan aloqa – elektron pochta anonim aloqa vositasiga aylantiradi. Eng muhimi ikki shaxs orasidagi muloqotni uchinchi odam o'qiy olmasligi – elektron pochta o'ta shaxsiy, yopiq bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek internetni yosh unib kelayotgan o'smirlar uchun yana bir afzallik tomonlari mavjudki uni inobatga olmay ilojimiz yo'q. Ular:

- Internet orqali muloqot – yolgizlikdan xalos bo'lish va yaqinlar doirasini kengaytirish istiqbolini oshiradi.

- Muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha kengroq ma'lumotlar olish mumkin.

- Boshqa shaxslarning qora niyatli aralashuvidan holi bo'ladi.

- Emotsiya va kayfiyatlar almashinuvi yuz beradi.

- Bu guruhning yana bir qiziqish sohasi bor. O'smirlar ko'p vaqtlarini Internet o'yinlariga bag'ishlaydilar. «Strategiya, harbiy o'yinlar, boshqotirma, mantiqiy o'yin, topishmoq, sarguzasht» va boshqa janrdagi o'yinlar bolalarga ma'qul tushgan. Tadqiqotlarga ko'ra 82 foiz yosh mijozlar har kuni bu o'yinlarga har soatdan ko'proq, 7 foiz esa haftasiga 30 soat vaqtini kompyuter o'yinlariga sarflar ekanlar.

- Yoshi o'sib borgan sari bunday o'yinlarga qiziqishi so'nib boradi. O'g'il bolalar – epchillik bilan bog'liq o'yinlarni, qizlar esa – mantiqiy, strategik o'yinlarni xush ko'rar ekanlar.

- Yana bir ma'lumot. 14-16 yoshli bolalar orasida 75 foizi Internetdan foydalanadilar. Ularning 40 foizi o'qish joyi yoki do'stlarining uyida, 27 foizi uyali aloqa orqali, 11 foizi Internet kafelarda Internetdan foydalanadilar.

Internetdan foydalanadigan o'smirlarning 67 foizi musiqa tinglash, 55 foizi turli dasturlarni topib ko'chirib olish, 43 foizi film va video kliplarni tomosha qilish, 38 foizi onlayn o'yinlarda ishtiroq etar ekanlar. Shunday qilib, bu yoshdagi o'smirlarni Internetga jalb qiladigan sabablar – yangi do'stlar orttirish, uzini biror garuhga taaluqli ekanini tasdiqlovchi hissiyotga erishish kabi holatlar ekan.

- 18-25 yoshli yigit va qizlar uchun aynan Internet va kompyuter – ularning ijodiy ifodasini namoyish etishda eng zarur qurol bo'lib qoldi. Tasvirlarni tahlil qilish, uch o'lchamli obyekt va landshaftlarni modellash, kino va video

lavhalarini yaratish web – dizayn kabi juda ko'p sohalarda beqiyos imkoniyalar paydo bo'ldi.

• Qiziqirgan va zarur ma'lumotni izlash muhim rol o'ynaydi. Buning uchun ular qidiruv tizimidan foydalanadilar.

Ma'lumki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalarining imkoniyatlarini kengaytiradi, obro'li va daromadli ish o'rinlarini topish, shaxsiy hordiq chiqarish va qiziqishlar olamini shakllantirish, oliy ma'lumot olish imkonini beradi. Monitor oldida o'tirgan yoshlar xohlagan mavzuda dunyoning xohlagan joyidan ma'lumot to'play olishi, boshqalar bilan axborot almashishi mumkin. Internet tez orada bilimni takomillashtirish, jahon ma'naviy va madaniy boyliklariga murojaat eta olishi mumkin. Hozir bu narsalarni juda osonlik bilan, alohida ruhsat yoki murojaatlarsiz, o'tirgan joyida topish mumkin.

Internet, kompyuter, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar – hozirgi zamon yoshlarining hayotiy ehtiyojiga aylandi. Ular hatto bir soatlarini bularsiz tasavvur eta olmaydilar.

Shuningdek zamon talabi bilan bugungi kun talabasiga bir necha talablar qo'yilgan:

1. Kompyuterni bilish;
2. Elektron pochta ishlashni o'rganish;
3. Internetda axborot izlash jarayonini bilish;
4. Telekommunikatsiya, chat, forumlarda qatnashish tajribasiga ega bo'lish;
5. Uyda Internetga ulanish imkoniyati bo'lishi kerak.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda yoshlar asosan quyidagi tarmoqlardan foydalanadi: VKontakte, Mening davram, MoyMir, Odnoklassniki. O'zbek tilida faoliyat ko'rsatuvchi vgorode.uz, sinfdosh.uz, bool.uz, vsetut.uz, doira.uz, sevgi.uz va boshqalar. Biroq foydalanuvchilar asosan rus tilidagi tarmoqlarda ro'yxatga olinganlar. Sanab o'tilgan ijtimoiy tarmoqlardan tashqari, Web 2.0 shaklida quyidagi resurslar mavjud:

- ijtimoiy kiritmalar;
- ijtimoiy kataloglar (ilmiy doiralarda foydalanishga mo'ljallangan);
- ijtimoiy kutubxonalar;

- veb-masterlar ijtimoiy tarmog'i - foydali materiallar haqida ma'lumot berish, mualliflar bilan muloqot, qiziqarli anonslar uchun ovoz berish;

- foydalanuvchilari ko'p bo'lgan tarmoq o'yinlari - turli xil o'yinlar, g'oliblarni aniqlash, yutuqlarni hisoblash, tortishuv va hokazo;

- geoijtimoiy tarmoqlar - foydalanuvchilarning jismoniy holati bo'yicha ijtimoiy aloqalar o'rnatishga imkon beradi;

- professional ijtimoiy tarmoqlar - ayrim mavzular, qiziqishlar bo'yicha muloqot, tajriba va axborot almashish, bo'sh o'rinlar va amaliy aloqalarni kengaytirishga oid takliflar;

- servis ijtimoiy tarmoqlar - umumiy qiziqish bo'yicha on-layn rejimida odamlarni birlashtirish;

- tijorat ijtimoiy tarmoqlari - biznes olamini qo'llab - quvvatlash, maxsulotlar haqida fikrlar hisobga olingan holda uni taqdim etish, maxsulotlarning savdosini kengaytirish va xaridorlarni xabardor qilish bilan shug'ullanadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda oila ham, maktab ham mafkuraviy jarayonlarda, OAV orqali tarqalayotgan informatsiyalar vaziyatni turli tomonlarga o'zgartirib yuborishi mumkinligini yetarlicha hisobga olmayptilar. Ta'lim muassasalarida hozirgacha ham ommaviy axborot vositalarini faqat o'quv jarayonini rang-barang o'tkazishga va qo'shimcha axborot olish uchun yordam beruvchi vosita sifatida qarashlarini ko'rsatmoqda. Afsuski, ayrim hollarda pedagoglar ham, ota-onalar ham ommaviy axborot vositalari materiallariga nisbatan o'ziga xos, muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida qaray olmaydilar. Buni kundalik pedagogik jarayonda o'sib kelayotgan yosh avlodning g'oyaviy tarbiyasida tan olmaslikni jiddiy pedagogik kamchilik sifatida tan olish kerak. Shunday ekan, yoshlarga mediamadaniyatni o'rgatish, ularni axborotni passiv qabul qiluvchi emas, unga baho beradigan mediasavodxon etib tarbiyalash bugungi kunning asosiy shartidir. Ommaviy kommunikatsiya kuchayayotgan bir paytda mediata'lim jurnalistikaning ham, pedagogikaning ham dolzarb masalasidir.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni. Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyul
2. Qur'onov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). – T.: «Ma'naviyat», 2013. – 320 b.
3. Qosimova N., Toshpo'latova N. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014, -211 b.
4. Ro'ziev F, Jo'raeva X. Telejurnalistga tavsiyalar.- T.: Sharq matbaa akdiyadorlik kompaniyasi, 2013.
5. Paxrutdinov Sh. Global axborot jamiyati va mediata'lim. O'quv-uslubiy ko'rsatma. –T.: 2014.
6. Трубицына Л. Средства массовой информации и психологическая травма. Проблемы медиапсихологии. «Журналистика в 2000 году: Реалии и прогнозы развития», Москва, МГУ, 2001. <http://evartist.narod.ru/text7/41.html>
7. Taylakov va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. III tom. Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2019 yil. 320 b.
8. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1999. 146-147 b.
9. Djuraev R.X., Kuchukbaev F.M., E.M.Azimova, O.F.Sotiboldiev. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etish. Maktab pedagog va psixologlari uchun ilmiy metodik qo'llanma. T:- 2012 – 41-42 bet.
10. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / пер. с фр.; под ред. В.А. Базарова. М.: Мысль, 1994. 300 с.